

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



**Erkin va farovon, qudratli yangi
O'zbekistonni barpo qilishning
ijtimoiy, siyosiy va falsafiy
muammolari**

Respublika ilmiy-amaliy
konfernsiyasi
29-30- sentyabr
MATERIALLARI

Termez 2024

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**Erkin va farovon, qudratli yangi O'zbekistonni barpo
qilishning ijtimoiy, siyosiy va falsafiy muammolari**

Respublika ilmiy-amaliy konfernsiyasi 29-30- sentyabr

MATERIALLARI

**Социально-политические и философские
проблемы построения свободного и
процветающего, мощного нового Узбекистана**

Республиканская научно-практическая конференция 29-30 сентября.

MATERIALS

**Social, political and philosophical problems of
building a free and prosperous, powerful new
Uzbekistan**

Republican scientific-practical conference

September 29-30

MATERIALS

Termez. Uzbekistan 2024

**Erkin va farovon, qudratli yangi O'zbekistonni
barpo qilishning ijtimoiy, siyosiy va falsafiy
muammolari**

**Respublika ilmiy amaliy anjumani
29-30 sentyabr**

Erkin va farovon, qudratli yangi O'zbekistonni barpo qilishning ijtimoiy, siyosiy va falsafiy muammolari - Respublika imiy amaliy anjumani. 29-30-sentyabr // Termiz davlat pedagogika instituti. c. 2024. 557-bet

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati tomonidan professional va oliy ta'lif tizimini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar hamda navbatdagi ustuvor vazifalar to'g'risida o'tkazilgan majlisning bayoni ijrosini o'z vaqtida va samarali bajarish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirining **2024-yil 18-yanvardagi 16-sonli buyrug'i** bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida 2024-yilda Xalqaro va Respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasiga asosan, Termiz davlat pedagogika institutida 2024- yil 29-30 sentabr kuni "Erkin va farovon, qudratli yangi O'zbekistonni barpo qilishning ijtimoiy, siyosiy va falsafiy muammolari" mayzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

To'plamdan o'rinni olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning xaqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldirlar

© Termiz davlat pedagogika instituti, 2024

JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Boltayev Shamshodjon Elmurod o'gli

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Jismoniy madaniyat va sport kafedrasи o'qituvchisi

sh.boltaev@cspi.uz

Ixtiyorov Javohir

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabasi,

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada pedagogik ta'lif innovatsion klaster yondashuvida maktab-laboratoriya tajribasining tarmoqlararo o'zaro hamkorligi asos sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, jismoniy madaniyat ta'lif yo'nalishi va umumiy o'rta ta'lif maktablari o'rtasida nafaqat o'qitishga qaratilgan pedagogik ta'lif innovatsion klasterini shakllantirish va rivojlantirish, balki mintaqaning kelajakdagi professional kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari nuqtayi nazaridan talabalar hamda o'quvchilarning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar. Pedagogik ta'lif innovation klaster, maktab-laboratoriya, innovation faoliyat, tarmoqlararo o'zaro hamkorlik, mintqa, model, jismoniy madaniyat ta'lif yo'nalishi, tajriba, kompetentlik.

OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE PROFESSIONAL PEDAGOGICAL ACTIVITY IN PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

ABSTRACT

This article outlines the inter-sectoral interaction of school-laboratory experience as the basis for the innovative cluster approach of pedagogical education. Also, physical culture is aimed not only at the formation and development of an innovative cluster of pedagogical education aimed at teaching between the educational direction and schools of general secondary education, but also at developing the scientific and creative potential of students and students from the point of view of the region's needs for future professional personnel.

Key words. Pedagogical educational innovation cluster, school-laboratory, innovation activity, inter-industry cooperation, region, model, educational direction of physical culture, experience, competence.

KIRISH.

Sh.M.Mirziyoyev prezidentlik lavozimiga kirishgan dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lif tizimini takomillashtirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratib kelmoqda. Mamlakatimizda ta'lif-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish, pedagog

kadrlar tayyorlash sifatini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Ta’limda pedagog – o‘zining ijodkorligi, faolligi, individualligi, tanqidiy fikrashi, kasbiy pedagogik kompetentligi, ya’ni kompetentliklar majmui hamda innovasion ta’lim texnologiyalarini joriy etish orqali pedagogik mahorat darajasini doimiy ravishda rivoj-lantirib borishga intilishi bilan ajralib turadi.

Kasbiy mahoratga ega bo‘lish uchun pedagogik yo‘nalish, kasbiy jihatdan ahamiyatli shaxsiy sifatlar, asosiy pedagogik qobiliyatlar, kasbiy kompetentlik, uzlusiz o‘z-o‘zini takomillashtirish, malaka oshirish, pedagogik ijodkorlik va innovatsiyalar zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ko‘plab muammolarga yechim izlashda, o‘qitish metodikasini takomillashtirishda klaster usuliga murojaat qilinmoqda. Xususan, ta’lim klasteri pedagogikamizda integratsiya va uzlusizlik bilan bog‘liq yangi innovatsion yo‘nalish hamda uning amaliyotga tatbiq qilinishi pedagogik ta’limda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash omili ekanligi G’.I.Muhamedov, Sh.Q.Mardonov, Sh.Botiroya, X.Sultonov, S.Toshtemirova, N.Koshanova, Q.Mahmudovlarning tadqiqotlarida muayyan darajada yoritilgan[1].

NATIJALAR

Klaster siyosati mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish strategiyasining asosi bo‘lib xizmat qiladi va ta’lim tizimiga nisbatan klasterni mintaqqa ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘qitish masalasini hal qilish uchun professional kuchlarni sintez qiluvchi innovatsiya markazi sifatida ko‘rsatish mumkin.

Ta’lim murakkab tizim bo‘lib, unda ko‘plab mustaqil to‘ldiruvchi va o‘zaro bog‘liq qismlar mavjud. Har qanday tizim faqat teskari aloqa mavjud bo‘lsa, samarali ishlaydi. Shuning uchun maktab va institut hamkorlik shakllarini rivojlantirishni o‘rganishi kerak. Bunday hamkorlikni amalga oshirish uchun ta’lim jarayonini tashkil etishda klaster modelidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik ta’lim innovatsion klaster – bu shartnomalar asosida o‘zaro hamkorlik qiluvchi va ta’lim mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha ilmiy, o‘quv va innovatsion maqsadlarni amalga oshirishda ishtirok etuvchi jug‘rofik mahalliylashtirilgan tashkilotlar guruhidir.

Pedagogik ta’lim innovatsion klasterini amalga oshirishning eng asosiy sharti va shakli sifatida “Maktab-laboratoriya” innovatsion tajriba maydonchalarini olish mumkin. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri ChDPU “Jismoniy madaniyat” ta’lim yo‘nalishining strategik tadqiqot yo‘nalishi bo‘lib, “Maktab-laboratoriya” uning yadrosi – amaliyotga tatbiq etish shakli hisoblanadi. “Maktab-laboratoriya”lar ilmiy-pedagogik innovatsion loyihalarni yaratish va tajriba-sinovdan o‘tkazish bilan bog‘liq muhim vazifalarni bajaradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda Toshkent viloyatining Chirchiq shahridagi umumiy o'rta ta'lif mакtablarida shunday 4 ta "Maktab-laboratoriya" innovatsion tajriba maydonchalari tashkil etilgan. Bu boradagi ishlarni tizimli va muayyan reja asosida olib borish maqsadida "Jismoniy madaniyat" ta'lif yo'nalishi va Chirchiq shahar xalq ta'limi bo'limining 24-25 umumiy o'rta ta'lif maktablari o'rtasida hamkorlik shartnomalari hamda chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. "Maktab-laboratoriya" innovatsion tajriba maydonchalarining maqsadi uzlusiz ta'lif jarayonida ta'lif turlari o'rtasidagi ilmiy, uslubiy va ta'lif vositalarini rivojlantirish, peda-gogik ta'lif innovatsion klasterini amaliyotga tatbiq etish bilan bog'liq ilmiy-pedagogik loyihalarni tajriba-sinovdan o'tkazishdan iborat.

XULOSA.

Pedagogik ta'lif innovatsion klasterni jismoniy madaniyat ta'lif yo'nalishi va mакtablarni hamkorlik qilish vositasi sifatida amalga oshirish muhimdir. Pedagogik ta'lif innovatsion klasterini tashkil etish zamонави о'qituvchi kasbiy tayyorgarligining eng muhim vazifasi – mutaxassislarни reproduktiv ishlab chiqarishdan ularning individual va ijodiy tayyorgarligiga o'tish, o'qituvchining ijodiy raqobatdosh shaxsini shakllantirishga ham yechim topadi.

REFERENCES

1. Muxamedov G.I., Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta'lif innovatsion klasteri: ta'rif, tavsif, tasnif. Chirchiq, Universitet – 2019.
2. Xo'jamqulov U.N. Maktab-laboratoriya. Chirchiq – 2019.
3. T.Achilov. Pedagogik ta'lif innovatsion klaster yondashuvida o'zaro hamkorlikning didaktik imkoniyatlari. Xalq ta'lifi. 5-son. T. 2021.
4. Азимқулов С. (2021). Таълим жараёнини инновацион педагогик технология асосида ташкил килишда кулланиладиган ўқитиш усул ва технологиялари. ЎзМУ ХАБАРЛАРИ, 2(1), 54-57. 7.
5. Азимқулов С.Н. (2021). Кластерный подход и его использование в научно-педагогических исследованиях. Academic Research in Educational Sciences, 3(2), 826-861. 8. 4.
6. Boltayev Sh.E. Abdurahmonov Sh. Qo'ziyeva F.B. Umumta'lif maktab o'quvchilarida klaster usulini qo'llash orqali jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirish. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 3 ISSUE 12 2022. Pp. 339-342.

156.	Halimova Fotima Karim qizi Xudoyberdiyeva Malikabonu Rustam qizi QISQA MASOFAGA YUGURUVCHILARNING YILLIK TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARINI TAQSIMLANISHI	640
157.	Halimova Fotima Karim qizi O'rbinboyeva Saragul Zafar qizi QOIDALI HARAKATLI O'YINLAR-JISMONIY TARBIYANING ENG ASOSIY METODI VA VOSITASIDIR	645
158.	Halimova Fotima Karim qizi Ahmadjonov Ahmadjon Qahramonzoda O'RTA VA UZOQ MASOFALARGA YUGURUVCHILAR MASHG'ULOTI	650
159.	Halimova Fotima Karim qizi Hasanova Feruza Sohibjonovna BALANDLIKKA SAKROVCHILARNI ANTROPOMETRIK KO'RSATKICHILARINI SPORT NATIJALARIGA TA'SIRI	654
160.	Halimova Fotima Karim qizi Mustafoeva Sayyora Odinaevna BALANDLIKKA SAKRASHDA YILLIK MASHG'ULOT SIKLI TUZILMASI VA MIQDORINING AHAMIYATI	659
161.	Boltayev Shamshodjon Elmurod o'g'li Kamolov Zuxriddin TALABALAR YOSHLAR ORASIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	664
162.	Boltayev Shamshodjon Elmurod o'g'li Ixtiyorov Javohir JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	667
163.	Boltayev Shamshodjon Elmurod o'g'li Yusupov Shohruh BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY MAHORATLARINI TAKOMILLAHTIRISH MASALALARI	670
164.	Болтасев Шамшоджон Эльмуродович Гайипов Асадбек Собиржонович ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКОВ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У ШКОЛЬНИКОВ ЗА СЧЕТ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННОГО КЛАСТЕРНОГО МЕТОДА	673
165.	Хайдарова Жасмина Бахромовна Маддикова Нилуфар Хамид кизи ОРГАНИЗАЦИЯ СПОРТИВНЫХ ЗАНЯТИЙ СО СПОРТИВНОЙ АКРОБАТИКОЙ	676
166.	Umriuzoqova E'zoza Anvar qizi Matlibova Nilufar Xamid qizi MASHG'ULOT JARAYONIDA SPORTCHILARGA TO'G'RI YUKLAMALARNI BERISH VA DAM OLİSH BILAN UZVELIKNI BOG'LASH	679
167.	Ibragimova Gulzar Baxadir qizi Matlibova Nilufar Xamid qizi ESHITISHIDA VA NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI	682
168.	Egamberdiyeva Gulasal Xurshidjon qizi Matlibova Nilufar Xamid qizi JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING TA'LIM - TARBIYA TIZIMIDAGI AHAMIYATI	687
169.	Boypulatov Lazizbek Rayshan o'g'li Matlibova Nilufar Xamid qizi SPORTNING FOYDASI VA ZARARI	690